

## TA'LIMGA BAXSHIDA UMR

**Mahmudov O'ral Mamatqulovich**  
*texnika fanlari nomzodi, dotsent.*  
(1954 yil 7 aprel-2016 yil 12 dekabr)

Mehnat ta'limi sohasining yetuk mutaxassislaridan biri, olim, kamtarin inson va yoshlarning ajoyib ustozlari Mahmudov O'ral Mamatqulovich 1954 yil 7-aprelda Jizzax viloyati Jizzax tumanida hizmatchi oilasida dunyoga keldi.

Mahmudov O'ral Mamatqulovich 1961-yil 14-son Furqat nomli o'rta maktabning 1-sinfiga o'qishga qabul qilinib, 1971-yili muvoffaqiyatli tugatdi. Shu yilning o'zida undagi o'qituvchilik kasbiga bo'lgan qiziqish va havas uni Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universitetiga yetakladi.

1971-yili universitetning "Umumiy texnika fanlari va mehnat" fakultetiga o'qishga kirib, 1976-yilda tamomladi. Shu yilning o'zida O'zbekiston Xalq ta'limi Vazirligi yo'llanmasi bilan Jizzax davlat pedagogika institutining "Mehnat ta'limi" fakultetiga ish qabul qilindi. 1976–79-yillarda kafedrada assistent, o'qituvchi vazifalarida ishladi. 1979-yildan 1980-yillar davrida O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasiga qarashli "Kibernetika ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi"da stajirovka, 1980–85-yillarda esa shu maskanda aspiranturaning kunduzgi bo'limida tehsil oldi. 1982–85-yillar Moskva shahridagi "Stanoksozlik va asbobsozlik" institutiga ilmiy tadqiqot ishlarini yakunlash maqsadida xizmat safariga yuborildi.

1986-yili professorlar Metrofanov V.G va Mo'minov N.A. rahbarligida mashinasozlik sohasiga dolzarb mavzu bo'lgan "Korpusli detallarga mexanik ishlov berish aniqligini oshirishning texnologik jarayonini ishlab chiqish" mavzusidagi desirtatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Ilmning zahmatli so'qmoqlaridan o'tish uchun chinakkam fidoyilik, tinimsiz ijodiy izlanish talab etiladi. Texnika fanlari nomzodi, dotsent, Mahmudov O'ral Mamatqulovich ana shunday sinovlardan o'tgan olim va murabbiydir.

U 1987-yildan Jizzax Davlat pedagogika instituti "Umumiy texnika fanlari" kafedrasida katta o'qituvchi, 1988-yilda esa fakultetda tarbiyaviy ishlar bo'yicha, 1989-yildan esa o'quv ishlari bo'yicha dekan muovini, 1990-1996-yillar davomida "Ishlab chiqarish asoslari" kafedrasida mudiri, 1996–2005-yillar davomida "Umumiy texnika fanlari" kafedrasida katta o'qituvchi vazifalarida ishladi.

Mahmudov O'ral Mamatqulovichni ko'p yillik ilmiy ijodiy izlanishlari samarali bo'lib, 40dan ortiq ilmiy ishlari bo'lib, shundan, 5ta uslubiy ko'rsata, 21ta uslubiy 14ta ilmiy maqolalardan iboratdir. 2005-yildan boshlab Mahmudov O'ral Mamatqulovich Jizzax viloyat pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini qayta

oshirish instituti “Amaliy fanlar” kaferdasiga tanlov asosida mudirlik lavozimiga ishga qabul qilindi va ushbu lavozimda faoliyat ko`rsatib keldi.

Mahmudov O`ral Mamatqulovich malaka oshirish tizimini takomillashtirish masalalari bo`yicha o`z taklif va mulohazalari bilan 40dan ortiq viloyat Respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ilmiy-metodik maqolalari bilan ishtirok etdi.

Jumladan “O`quvchilarda kasb-hunarga qiziqishni shakllantirish omillari” (Toshkent-2009-yil), “Mehnat ta`limi darslarini o`qitishda interfaol usullardan foydalanish”, “Innovatsion texnologiyalar va ularni ta`lim jarayoniga joriy etish masalalari” (Andijon 2011-yil), “Malaka oshirish tizimini takomillashtirish omillari” (Qarshi 2012-yil), “Mehnat maishiy hizmati ta`limini o`qitishda interfaol usullardan foydalanish” (Jizzax 2009-yil).

Mahmudov O`ral Mamatqulovich 20dan ortiq uslubiy o`quv qo`llanma va metodik tavsiyalar yaratdi.

Ustoz Jizzax viloyat pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini qayta oshirish institutida “Amaliy fanlar ta`limi mazmunini takomillashtirish” mavzusida ilmiy-tadqiqot ishlarini shogirdlari bilan birga amalga oshirdi.

Mahmudov O`ral Mamatqulovich tomonidan olib borilgan stanoksozlik va asbobsozlik sohasidagi ilmiy tadqiqot ishlari natijalari Moskva, Tula, Ryazan, Novosibirsk mashinasozlik korxonalarida o`z samarasini bermoqda.

Zahmatkash olim, ko`p sonli shogirdlarining ustoz, yoshlarni tarbiyalashda o`z kuch va g`ayratini ayamay kelgan. Eng muhimi olim el ardog`ida professorlar, o`qituvchilar, tinglovchilar o`rtasida hurmatga sazovor bo`ldi. Olimning ko`p yillik samarali ilmiy-pedagogik faoliyati bir necha bor faxriy yorliqlar va 1987 yilda O`zbekiston Respublikasi “Komsomol mukofoti” bilan taqdirlandi.

2008-yil Mahmudov O`ral Mamatqulovich xizmatlari munosib ko`rilib, “Xalq ta`limi a`lochisi” ko`krak nishoni bilan taqdirlandi.

Mohir pedagog umrining so`ngiga qadar mustaqil O`zbekistonimizning gullab yashnashida, yosh avlodga bilim berishda o`zining bor kuchini ayamay xalq talimi sohasiga munosib o`z hissasini qo`shib kelgan.

### **Otajon**

Baxtim derdim otajon, baxtdan qasr qurdingiz

Hayotimda doimo olg`a bor deb turdingiz

Ham shodlikda tashvishda siz bo`ldingiz yonimda

Goh sevinchga, goh g`amga to`lgandi bu ko`nglingiz

Besh farzandni o`stirib sira tinim bilmadi

Qachon men mag`lub bo`lsam g`olib bo`l deb undadi

Dilimni faqatgina ezgulikka yo`lladi

Dunyodagi bor baxtni dadam menga tiladi



Har tavallud kunimda peshonamdan o'pardiz  
Mehr bilan boqardi menga ikki ko'zingiz  
Yuragimda yashaysiz otajonim mangu siz  
Vujudimda yangraydi qizim degan so'zingiz

O'sha baxtli damlarni juda ko'p xotirlayman  
Onamni quchib turib quchog'ingiz eslayman  
Har tavallud kuningizda qabringizni quchgayman  
Sizday mehriyoni ayting qaydan topgayman

Mashinaning ovozin eshitib chiqar edim  
Bobojon deb nabirangiz baravar chopar edi  
Qo'lingizda muzqaymoq quchardingiz ularni  
Dunyodagi bor baxtni biz sizdan topar edik

Mana bugun keng ko'cha go'yo huvullab qolgan  
Onam ham yo'lga qarab keksayib ancha qolgan  
Nabirangiz chopadi bugun ushbu ko'chada  
Onamning ikki ko'zi bugun yoshlarga to'lgan



**Umarjonova Kamola O`ralovna (O`.Mahmudovning qizlari)**

**Hamid Olimjon va Zulfiya ijod maktabi tarbiyachisi**











